

UDK 141 + 167.0

## SUBSTANSIAL-PRAGMATIK YONDASHUVDA NUTQNING SISTEMAVIYLIGI VA UNING TALQINI MASALASI

**Ibragimov Javlon**

Abdulla Oripov ijod maktabi o‘qituvchisi, f.f.d. (DSc)

Email: [boburdusyorov@gmail.com](mailto:boburdusyorov@gmail.com) Tel: +998904429068

**Annotatsiya:** Tilshunoslikda sistem yondashuv natijasida lison va nutq farqlandi. Lisoniy sistemalar to‘liq tadqiq qilindi. Ammo tilshunoslikka substansial-pragmatik yondashuv nutqiy sistemalar ham mavjudligini ko‘rsatdi. Nutqiy sistema o‘zining aniqligi, moddiyilikka egaligi, individualligi va o‘tkinchiligi bilan ajralib turadi. Shu sababli nutqiy sistemalar boshqa moddiy sistemalar kabi o‘zining metrik o‘lchamlariga ham ega bo‘ladi. Nutqiy sistemalar tadqiqi nutqiy samaradorlik uchun xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Nutqiy sistema, nutq, substansial-pragmatik yondashuv, sistem-struktur yondashuv

**Аннотация:** В результате системного подхода в языкоznании были выделены язык и речь. Лингвистические системы были тщательно исследованы. Но содержательно-прагматический подход к языкоznанию показал существование речевых систем. Речевая система отличается ясностью, материальностью, индивидуальностью и скротечностью. Поэтому речевые системы, как и другие материальные системы, имеют свои метрические измерения. Изучение речевых систем служит эффективности речи.

**Ключевые слова:** Речевая система, речь, содержательно-прагматический подход, системно-структурный подход.

**Abstract:** As a result of a systematic approach in linguistics, language and speech were distinguished. Linguistic systems have been thoroughly researched. But the content-pragmatic approach to linguistics showed the existence of speech systems. The speech system is distinguished by clarity, materiality, individuality and transience. Therefore, speech systems, like other material systems, have their own metric measurements. The study of speech systems serves the purpose of speech efficiency.

**Key words:** speech system, speech, content-pragmatic approach, system-structural approach.

Tilshunoslikka sistem-struktur yondashuv kirib kelishi natijasida tildagi lisoniy va nutqiy jihatlar izchil farqlandi, bosh vazifa cheksiz nutqiy hodisalar zamiridagi lisoniy mohiyatlarni aniqlash bo‘lganligi sababli asosiy e’tibor lisoniy sath birliklari va ular orasidagi munosabatlarga qaratildi. Har bir lisoniy sathning sistem-struktur mohiyatidan tortib, til(lison)ning yaxlit sistema sifatidagi xususiyatlarigacha tadqiq qilindi [1:164]. Biroq ushbu tadqiq usulining qo‘llanish doirasi lisoniy sath bilan cheklandi, davr talabi yetilmaganligi, ijtimoiy zarurat yuzaga kelmaganligi sababli nutqning sistemaviy tabiatiga e’tibor berilmadi. Lisoniy sistema yetarli darajada tadqiq etilib bo‘lganligi sababli endi nutqni tadqiq qilishga o‘tildi. Nutqiy sistemaning o‘ziga xosligi va u

lisoniy sistemadan jiddiy farq qilganligi sababli sistemaviy yondashuv mohiyati va tamoyillari nutqiy sistemalar tadqiqida o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi. Bu esa nutqiy sistemaning o‘ziga xosligini yoritib berishni taqozo qiladi.

Lisoniy sistema sath doirasida mavjud bo‘ladi. Masalan, fonetik-fonologik sath, leksik sath, morfologik sath, sintaktik sath kabi. Hech qachon fonetik-fonologik mohiyatli lisoniy birlik sintaktik lisoniy sistema uchun unsur maqomiga o‘ta olmaydi. Biroq nutqiy sistema uchun bu holat tabiiy va muqarrar. Shu bilan birga, lisoniy mohiyatlari unsurning o‘zi ham nutqiy sistemani tashkil qila olmaydi. Oldingi boblarda aytilganidek, har qanday nutq parchasi yoki sistemasi lisoniy va nolisoniy unsurdan tashkil topadi. Masalan, nutqda talaffuz etilgan istalgan so‘z nutqiy sistemasida tashqi, nolisoniy omillar (vaziyat, shaxs, sharoit) kabilalar ham unsur sifatida ishtirot etadi. Mazmun beruvchi mimikalarda lisoniy omillar nol darajaga tushib, bu nutqiy sistema faqat nolisoniy unsurlardan tashkil topadi – g‘alati ifoda vujudga keladi: “faqat nolisoniy unsurlardan iborat nutqiy sistema”. *Nolisoniy nutqiy sistema ifodasi qizil qor, oq ko‘mir* kabi oksymoron birlikdir. Holbuki, lingvistik nazariyalarga ko‘ra, nutq lisonidan tashqarida bo‘lishi mumkin emas. Biroq real holat har doim ham bunday emasligini ko‘rsatadi.

Lisoniy sistema individual (yakka shaxs) aqliy faoliyat natijasida tiklanadigan umumiylig [2,3,4], bunday sistemalar borliqda mavjud emas. Masalan, unli fonemalar sistemasi, kelishiklar sistemasi, leksemalar sistemasi. Eslatib o‘tish joiz, borliqda unlilar, kelishiklar, qo‘sishchalar mavjud, ammo ular shu nomdagi sistema sifatida mavjud emas. Shaxs tafakkuri nutqdagi tarqoq unlilarni, kelishiklarni o‘zicha bog‘laydi, birlashtiradi – natijada lisoniy sistema vujudga kelib qoladi. Agar biror kishi oldindan belgilab qo‘ymasa, boshqa kishi tomonidan bu sistema butunlay boshqacha bo‘lib chiqishi mumkin edi, shakllangan stereotiplar esa ilk axborot va taqdim etilgan sistemani boshqacha tasavvur qilishga imkon bermaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi unlilar sistemasining miqdori va mohiyati bilan to‘ldirilgan ijtimoiy ong zo‘rlab tigishtirilgan ma’lumotdan boshqasini qabul qila olmaydi. Aks holda “og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchramaydigan” bu “oltita” unsuridan iborat sistema haqidagi bilimlarimiz uni inkor qiluvchi tizimdagagi unsurlarning farqlanish tamoyili haqidagi qarashlar bilan, tilirozning ifoda imkoniyati bu olti unli bilan cheklanmasligi kabi bilimlar bilan boyigan bo‘lur edi. Yoxud tilimizdagi alohida so‘z turkum (taqlid, undov, modal)larini olaylik. Ular o‘zbek tili so‘z turkumlari sistemasida alohida, ajralgan elementlar ekan, bu mavhum sistemani istalgancha talqin qilish mumkinligidan dalolat beradi. Axir, sistemaning asosiy xususiyatidan biri yaxlitlik ekan, yaxlitlik tarkibida ajralganlik, gomogenlik tarkibida geterogenlikni qanday tushunish mumkin. Qolaversa, ayrim tadqiqotchilar “alohida so‘z turkumlari” atamasiga tish tirnog‘i bilan qarshi turishadi. Ko‘rinadiki, mavhum lisoniy sistema – yakka shaxs idroki mahsuli bo‘lgan ilmiy yaratilmaning ijtimoiylashgan ko‘rinishi.

Nutqiy sistema aniqligi (muayyanligi, konkretligi) bilan xarakterlanadi. U moddiyligi (sezgi a’zolariga ta’sir qilishi), individualligi, o‘tkinchiligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Nutqda aynan unlilar sistemasi yoki undoshlar sistemasi emas, balki bo‘g‘in, bo‘g‘inlardan tashkil topgan qo‘sishcha yoki so‘z, so‘zlardan tashkil topgan gap, gaplardan tashkil topgan matn sistemalari mavjud. Barcha moddiy sistemalar kabi nutqiy sistemalar ham o‘zining metrik o‘lchamlariga ega. Masalan, balandlik, cho‘ziqlik, uzunlik kabi. Lisoniy sistemalar esa nomoddiy bo‘lganligidan bunday metrik o‘lchovlarga ega emas.

Har qanday mavhum, ideal sistema elementlari orasida qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni asosidagi ziddiyatlilik, oppozitivlik muhim rol o‘ynaydi. Masalan, [a] va [o] unli fonemalari orasidagi lisoniy ziddiyat ularning nutqiy vogelanishida, xususan, yonmayon kelganda moslashuvga aylanadi. *Maoniy, maorif* kabi so‘zlarda yonma-yon kelayotgan

a va o tovushlari torlik va kenglik darajasiga ko‘ra ham, lablar ishtirokiga ko‘ra ham o‘zaro moslashadi. Ular orasidagi lisoniy oppozitsiya o‘rnini qisman yoki to‘liq moslashuvga bo‘shatib beradi. Moslashuv to‘liq sodir bo‘lganda sifat jihatdan farqlanuvchi ikki fonema variantining birlashib, bir cho‘ziq unliga aylanishi sodir bo‘ladi: *moorif, soodat* kabi. Yoki *katta* va *kichik, baland* va *past, uzun* va qisqa so‘zlari nutqda juftlashar ekan, ular orasidagi zid semalardan moslashuv natijasida yangi ma’no vujudga keladi.

Buni jadvalda quyidagicha berish mumkin:

Tarkibi	Mavhum sistema [umuman odam]	Muayyan sistema [muayyan shaxs]
Element	1) tana; 2) ong; 3) ruh; 4) mijoz	1) 85 kg, 170 sm qoramag‘iz tana; 2) IQ-3 darajali ong; 3) toza qalb; 4) sangvinik mijoz
Munosabat	Mavhum bog‘lanish	tabiiy yaxlitlik

Bundan sistemalarning o‘ziga xos xususiyatlari kelib chiqadi:

Mavhum sistema [umuman odam]	Muayyan sistema [muayyan shaxs]
Nomoddiy	Moddiy
Ongda	Ongdan tashqarida
Elementlari geterogen, ya’ni har xil	Elementlari geterogen, ya’ni har xil
Elementlari orasida bog‘lanish munosabati mavjud	Elementlari orasida bog‘lanish munosabati mavjud

Lisoniy sistemaning mavhumligi uning to‘liq va mukammalligiga ishontirish asosida “oqlanadi”. Holbuki, inson tafakkuri cheklanganligi va rivojlanib borganligi sababli bu to‘liqlilik va mukammallikni nisbiy deb tushunish lozim. Lisoniy sistemaning noto‘liqligi uning o‘zgarib turishida ko‘zga tashlanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi unli fonemalar sistemasi, kelishiklar sistema tarkibi haqidagi qarashlarning beqarorligi. O‘zbek tilidagi 6 unli fonemadan iborat sistema to‘liqligi va mukammalligi oshkora yoki zimdan uqtirib, ijtimoiy ongga singdirib kelindi. Oqibatda bu sistemaning to‘liq va mukammalligi aksiomatik tus olib, ijtimoiy stereotipik xarakterga ega. Biroq o‘zbek tilida, masalan, “i” (*ish*) dan farqlanuvchi “ы”(*qiliq*), “ў” (*bo‘liq*) dan farqlanuvchi “ӯ” (*ø*) (*o‘lka*) ning ushbu sistemadan o‘rin olishi lozimligi bu o‘rnashgan chayir an’anani buza olmaydi, biroq bu unlilar mavjudligi e’tirof etilsa, “olti unli” sistemasining chala va nomukammal ekanligi ayon bo‘lib qoladi. Yoki o‘zbek tilida rus tili analogiyasi asosida 6 kelishikli sistemaning to‘liqligi va mukammalligi an’anasini o‘rnashgan. Bir qarashda bu e’tirozga o‘rin qoldirmaydigandek. Biroq o‘zbek tilida -*gacha* chegara kelishigi (prof. H.Ne’matov [5:33-39]), -dek/day o‘xshatish kelishigi (III.Shoabdurahmonov va boshq [6:250]) borligi tan olinsa, demak, hali bu lisoniy sistemalar to‘liq o‘rganilmagan yoki tiklanmagan degan xulosa kelib chiqadi.

Lingvistik strukturalizmda lisoniy sistemaning barqarorlik, nutqning esa beqarorlik xususiyatiga egaligi uqtiriladi. Biroq uni isbot qilish asosida istagancha o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Lisoniy sistemaning beqarorligi shundaki, qarashlarning turlichaligi va tafakkur rivoji bu sistemani turlicha o‘zgaruvchi mavjudlik sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu haqda yuqorida o‘zbek tilidagi unlilar sistemasi, kelishiklar sistemasi, so‘z turkumlari sistemasi misolida fikr yuritildi. Ma’lum bo‘ladiki, mavhum sistemalarning mavjudligi va xususiyati inson tafakkuri bilan shartlangan. Bu tafakkur unga istalgan yorliqni yopishtirish, mavjudlaridan

mavhum qilish imkonini beradi. Talqinlarda “men bormanki, olam bor”, “borliq mening nigohim mahsuli” kabi eski falsafiy qarashlar lingvistik strukturalizm talqinida ko‘p hollarda to‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Umumiylig va mohiyatni mutlaq tiklash inson tafakkurining cheklanganligi bilan bog‘liqligi sababli strukturalizmning xulosalariga “hal qiluvchi vosita” sifatida qarashning to‘g‘ri emasligidan dalolat beradi. Strukturalizm obyektiv borliqni insonning cheklangan tafakkuri (subyektiv omillar) asosida baholar ekan, uning xulosalariga har doim shubha bilan qarash illati saqlanib qolaveradi. Lisoniy sistemaga zid ravishda nutqiy sistema oniy sistema bo‘lsa-da, u buzilmas tabiatli. Chunki uni takrorlab bo‘lmasligining o‘ziyoq barqarorligini ko‘rsatadi. Masalan, yozilgan kitob, ovozli nutq hech kim tomonidan o‘zgartirila olmaydi. O‘zgartirish uchun uni takrorlash kerak bo‘ladi. Borliqda esa takroriylik yo‘q. Borliqdagi har bir hodisa, shaxs, harakat, narsa betakror. Betakrorlik – o‘zgartirib bo‘lmaslik belgisi.

Lisoniy sistema borliqda mavjud bo‘limganligidan u aslida shu tizimi holatida faoliyat ko‘rsatmaydi. Biroq bu sistemalarning tiklanishi uni tashkil etuvchi elementlarning borliqda amal qilishi asosida yuz beradi.

Lisoniy sistemalar ongda ikki usulda:

- 1) prototipli mavhum sistemalar bir jinsli hodisalarini umumlashtirish asosida (odam sistemasi, ruboiy sistemasi);
- 2) prototipsiz mavhum sistemalar turli jinsli hodisalarini umumlashtirish asosida (unlilar sistemasi, badiiy san’atlar sistemasi) tiklanadi.

Prototipli sistemani tiklash prototipsiz sistemani tiklashdan ma’lum jihatlari bilan farqlansa-da, ulardagi umumiy jihat – farqlardan voz kechib, umumiy jihatlarni birlashtirish. Har ikki sistema ham amaliy faoliyatdan uzib olingan holda tahlil qilinadi. Zero, nutqda oltita kelishik shaklidan iborat sistema faoliyat ko‘rsatmaydi. Bu sistema elementlaridan faqat bittasi bitta amaliy pozitsiyada kela oladi. Borliqda mavhum sistema mavjud emas ekan, u jonsiz yoki “o‘lik” sistemadir. O‘lik sistema esa rivojlanishdan, taraqqiyotdan mahrum. Nazarimizda, “o‘lik sistema” atamasi hodisa mohiyatini biroz jo‘nlashtiradi. Shu boisdan “tug‘ilmagan sistema” deyish to‘g‘riroq bo‘lar. Bu, albatta, ushbu mavhum sistemaning mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Faoliyatdan uzilgan hodisa jonsiz ekan, jonsiz sistemani ta’rifu tavsiflash oson bo‘lib, aytilganidek, bu osonlik unda subyektivlik xususiyatining bo‘rtib turishi bilan bog‘liq.

An’anaviy sistemaviy tahlillarda nutqiy birlikning paradigmatic, sintagmatik va iyerarxik munosabatlari tadqiq qilinib, bu munosabatlarni gorizontal, vertikal ko‘rinishlaridagi chiziqsimon yo‘nalish sifatida tasavvur qilish mumkin. Chiziqlilik sistemaviy xususiyatlarni ochuvchi asosiy tamoyil hisoblanadi. Biroq nutqiy birlikning sistemaviy-substansial xususiyatlari matn tarkibida nutqiy voqelanganda o‘zgarishga uchraydi – modifikatsiyalanadi. Shu boisdan nutqiy voqelik sifatidagi til birligining nutqiy sistemadagi xususiyatini aniqlashni uning sistemaning umumiy mazmuniga, undagi boshqa birliklarga munosabati nuqtai nazaridan tahlil qilmasdan amalga oshirish mumkin emas. Nutqiy sistemada muayyan til birligining tutgan o‘rnini aniqlash sintagmatik munosabatning – chiziqli tahlilning bir ko‘rinishi. Ammo ushbu birlikning umuman nutqiy sistema struktur xususiyatlari nuqtai nazaridan tahlili ikkinchi o‘lchamli – yuzaviy (matniy) o‘rganishni namoyon qiladi.

Til hodisalarini o‘rganishning yangi bosqichida birliklarni uch o‘lchovli sistema sifatida o‘rganish tahlilning nisbatan mukammalligi va to‘liqligini ta‘minlaydi. Quyidagi o‘lchamlar nutqiy sistemaning kompleks tahlilida mushtarak bo‘ladi:

nutqiy birlikning chiziqli xususiyatlarini ochish birinchi o'lcham asosidagi baholash bo'lib, u paradigmatic, sintagmatic va iyerarxik munosabatlarni aniqlash sifatida namoyon bo'ladi; bunda til hodisasining substansial qiymati oydinlashadi;

nutqiy birlikning matniy (nutqiy) xususiyatlarini ochish ikkinchi o'lcham asosidagi baholash, nutqiy birlik matndagi boshqa unsurlar va matnning umumiy xususiyatlariga munosabat nuqtai nazaridan o'rganiladi; lisoniy birlikning nutqiy xususiyati ochiladi;

uchinchchi bosqichda nutqiy birlik antropo-sotsio-pragmatik omillar qurshovida kuzatilib, bu omillar yaxlitligi matn bilan birgalikda nutqiy birlik amal qiladigan "fazo" sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi o'lcham asosidagi o'rganishda, albatta, birinchi o'lcham xulosalariga tayanilsa, uchinchi o'lcham asosidagi tahlil dastlabki ikki o'lcham natijalariga suyanadi. Nutqiy birliklarning diskursiv tahlili matn va diskurs munosabatini, ularning o'xshash va farqli tomonini mazkur o'lchamlar mushtarakligi asosida muayyanlashtiradi.

Nutqiy sistema aniqligi (muayyanligi, konkretligi) bilan xarakterlanadi. U moddiyligi, individualligi, o'tkinchiligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Barcha moddiy sistemalar kabi nutqiy sistemalar ham o'zining metrik o'lchamlariga ega. Nutqiy sistemaviy tahlil til birliklarini "lison+matn (nutq)+tashqi omillar" uchligi asosidagi o'rganish usuli, tilshunoslikning bugungi taraqqiyot darajasi til hodisalarining nisbiy to'laqonli mohiyatini ochishda sistemaviy tahlilning ushbu zamonaviy turini qo'llashni taqozo qilmoqda.

### **Adabiyotlar:**

1. Менглиев Б.Р. Тил яхлит система сифатида: Монография. – Тошкент: Нихол, 2010. – 164 б.
2. Основные направления структурализма, – Москва: Наука, 1964. – 362 с.
3. Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику. – Москва: Высшая школа, 1974. – 319 с.
4. Ревзин И.И. Современная структурная лингвистика. – Москва: Наука, 1977. – 263 с.
5. Нематов Х. Чегара келишиги // Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 1971. 4-сон. – Б.33-39.
6. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қ. – Тошкент. Ўқитувчи, 1980. – 466 б.